

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi
Urganch davlat pedagogika insituti
tayanch doktoranti
yusupovoybek220620@gmail.com

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA JADID NAMOYANDALARINING TA'LIM-TARBIYAVIY G'OYALARI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Maqolaning kirish qismida jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy va madaniy harakat ekanligi bu harakatning asosiy maqsadi yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash, milliy ongini uyg'otish va jamiyatni zamonaviylashtirish qaratilganligi yoritilgan bo'lsa maqolaning metodlar qismida jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov Abdulla Avloniy Is'hoqxon Ibrat kabi namoyandalarining oila, ma'naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilingan va zamonaviy pedagogikada qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari Maqolaning muhokama qismida esa jadid namoyandalarining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Ularning axloqiy tarbiya, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatga qaratilgan qarashlari zamonaviy pedagogikada qo'llanilishi mumkinligi alohida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, ta'lim, tarbiya, gender tenglik, oilaviy hayot, axloqiy tarbiya.

THE IMPORTANCE OF THE EDUCATIONAL AND MORAL IDEAS OF JADID THINKERS IN PREPARING YOUTH FOR FAMILY LIFE

Annotation. This article analyzes the socio-pedagogical significance of preparing youth for family life based on the educational and moral ideas of the Jadid movement. The introduction highlights the Jadid movement as a socio-cultural reform initiative that emerged in Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries. The movement primarily aimed to equip the younger generation with modern knowledge, awaken national consciousness, and modernize society. The methodology section examines the educational and moral ideas of key Jadid figures such as Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Abduqodir Shakuri, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdulla Avloniy, and Is'hoqxon Ibrat, focusing on their views on family and moral-ethical upbringing, as well as their relevance and applicability in contemporary pedagogy. In the discussion section, special emphasis is placed on the importance of the Jadids' educational concepts in preparing youth for family life. Their perspectives on moral education, enlightenment, and social responsibility are shown to have potential value in modern pedagogical practices.

Keywords: Jadid movement, education, upbringing, gender equality, family life, moral education.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ИДЕЙ ДЖАДИДСКИХ ДЕЯТЕЛЕЙ В ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье проанализировано социально-педагогическое значение подготовки молодежи к семейной жизни на основе образовательных и воспитательных идей джадидского движения. Во вступительной части статьи

раскрывается суть джадидского движения как социально-культурного движения, направленного на проведение духовно-просветительских реформ в Туркестане в конце XIX - начале XX веков. Основной целью данного движения являлось обеспечение молодежи современными знаниями, пробуждение национального сознания и модернизация общества. В методологической части проанализированы просветительские идеи джадидов, в частности взгляды таких представителей, как Махмудходжа Бехбудий, Абдурауф Фитрат, Абдулхамид Чулпон, Абдукодир Шакури, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдулла Авлоний и Исхокхон Ибрат, касающиеся семьи и духовно-нравственного воспитания, а также их возможное применение в современной педагогике. В дискуссионной части особое внимание уделено значению воспитательных идей джадидов в подготовке молодежи к семейной жизни. Показано, что их взгляды, направленные на нравственное воспитание, просвещение и формирование социальной ответственности, могут эффективно использоваться в современной педагогике.

Ключевые слова: джадидское движение, образование, воспитание, гендерное равенство, семейная жизнь, нравственное воспитание.

Kirish. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos katta, ayniqsa bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi muhim hisoblanadi. Ya'ni jadidchilik harakati ma'rifatparvarlarining g'oyalari orqali yoshlarni tarbiyalash va ularni oilaviy hayotga tayyorlash muhimdir. Bugungi zamonaviy ta'lim tarbiya jarayonida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, kabi jadidlarning ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda dolzarb hisoblanadi.

1. Tarixiy- tahliliy metod: jadidlarning asarlarida ta'limiy tarbiyaviy qarashlar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy tahlil: Jadidlarning ta'lim g'oyalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtirildi.

Jadidlar yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, sog'lom hayot tarzi va ma'naviy immunitetni shakllantirishga katta e'tibor berganlar. Xususan Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikri bilan oilaviy tarbiyaning jamiyat uchun muhimligini ta'kidlaydi. Uning asarlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, va milliy qadriyatlar asosiy o'rin tutadi. Avloniy oila "sog'lom jamiyatning ustuni" deb bilgan.

Ya'ni Abdulla Avloniy o'z asarlarida tarbiyaning bolaning shaxsiyatini shakllantirishda muhim ekanligini ta'kidlab, besh yoshgacha bo'lgan tarbiyaning 90% ahamiyatga ega ekanligini yozgan. Hususan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yoshlarni axloqiy tarbiyalashga bag'ishlangan bo'lib, oilaviy hayotda vatanparvarlik, sadoqat, va hurmat kabi qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. "Vatanni suymak" bobida Avloniy oilaviy hayotni vatanparvarlik bilan bog'laydi. "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kabi darsliklari yoshlarni ta'lim va axloqiy tarbiya uchun jalb qilishga xizmat qilgan. Ular oilaviy hayotda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan.[1.13B].

Mahmudxo'ja Behbudiy oilani jamiyatning asosi deb bilgan va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim va ma'rifatni birinchi o'ringa qo'ygan.

Behbudiy yoshlarni iqtisodiy mustaqillikka erishishga va oilaviy hayotda o'z mas'uliyatlarini anglashga chaqirgan. Uning qarashlarida oila mustahkam bo'lmasa, jamiyat taraqqiyoti ham yuksalmaydi degan.[2.27B].

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" asarida oiladagi axloqsizlik va jaholatning oqibatlari haqida ogohlantirib, yoshlarni mas'uliyatli va axloqli shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi.

"Risoi asbobi savod", "Kitob-ul-atfol": Bu darsliklar yoshlarni savodxonlik va axloqiy tarbiyaga o'rgatishga xizmat qilgan bo'lib, oilaviy hayotda bilim va ma'naviyatning muhimligini ta'kidlaydi. Ular oilaviy hayotda ota-onalarning mas'uliyatini oshirish, yoshlarni axloqiy va ruhiy jihatdan tayyorlashga e'tibor qaratganlar. Bu ayniqsa, oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va jammiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim edi.[3.68B].

Abdulhamid Cho'lponing "Kecha va kunduz" romani o'zbek adabiyotidagi ilk realist romanlardan biri bo'lib, oilaviy munosabatlar, ayollar huquqlari va ijtimoiy adolatsizlik masalalarini ko'taradi. Romanda oiladagi muammolar, ayniqsa, ayollarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi va yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi muhokama qilinadi.

Cho'lponning "Do'xtur Muhammadyor" kabi hikoyalari va she'rlarida axloqiy tarbiya, sevgi, sadoqat va oilaviy qadriyatlar targ'ib qilinadi.

Cho'lpon oilaviy hayotni mustahkamlashda yoshlarni axloqiy tarbiya va ma'rifat orqali tayyorlashga katta e'tibor bergan.

U ayollarning ta'lim olishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini muhim deb hisoblagan, chunki oilaning mustahkamligi ayollarning ma'rifat darajasiga bog'liq edi. Bu g'oya ayniqsa "Kecha va kunduz"da yaqqol ko'rinadi.

Cho'lponning she'rlarida sevgi va sadoqat kabi tuyg'ular oilaviy hayotning asosi sifatida ulug'lanadi, bu yoshlarni oilaviy munosabatlarga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi.[9.46B].

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining eng muhim va taniqli namoyandalaridan biri hisoblanadi. U o'zbek adabiyoti, tarixi, tilshunosligi va maorif sohasiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchi, shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi edi

Abdurauf Fitrat bilim olishni har bir shaxsning burchi deb bilgan. U yoshlarni zamonaviy ta'lim olishga undadi, chunki bilimli shaxs oilada yaxshi yetakchi va tarbiyachi bo'la oladi degan [9.47.B].

Abdurauf Fitratning "Oila" asari to'g'ridan-to'g'ri oilaviy hayotga bag'is hlangan bo'lib, unda o'zbek oilasidagi muammolar, ayollarning huquqlari va oilada tenglik masalalari ko'tariladi. U oilada o'zaro hurmat, mehr-oqibat va mas'uliyatni targ'ib qiladi. Yoshlar uchun bu asar oilaviy munosabatlarda axloqiy me'yorlarni shakllantirishda muhim yo'l-yo'riq bo'la oladi.

Fitratning "Abulfayzxon", "Temur sag'anasi" kabi dramatik asarlari milliy tarix va qahramonlikni ulug'laydi. Bu asarlar yoshlarda vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi, bu esa oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Fitrat o'zbek jamiyatida ayollarning ta'lim olishi va ijtimoiy hayotda faol bo'lishini qo'llab-quvvatladi. Yoshlarda axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat va o'zaro hurmatni shakllantirish muhim deb bilgan. Bu oilaviy hayotda muhim bo'lib, yoshlarni mehr-oqibat, sadoqat va oilaviy mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi. [4.89B].

Munavvarqori Abdurashidxonov o'zining "Nikoh to'g'risida" asarida oilaviy hayotning asoslari, nikohning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati haqida fikr yuritadi. U nikohni nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki jamiyatning barqarorligi uchun muhim institut sifatida ko'radi.

"Adibi avval" va "Adibi soniy" kabi darsliklar yoshlarni savodxonlikka o'rgatish bilan birga, axloqiy tarbiya va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishga yo'naltirilgan. Oilaviy hayotga tayyorlash uchun axloq va ma'naviyatni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan.[6.78B].

Munavvarqori oilaviy hayotni jamiyatning asosi deb bilgan va yoshlarni oilaviy mas'uliyatga tayyorlashda ta'lim va axloqiy tarbiyani birinchi o'ringa qo'ygan. Shuningdek ayollar ta'limiga alohida e'tibor bergan, chunki u oilaning mustahkamligi ayollarning ma'rifatli bo'lishiga bog'liq deb hisoblagan.[7.23B].

Hamza Hakimzoda Niyoziy "Yanglish yo'l" dramasida oiladagi axloqsizlik, nodonlik va ijtimoiy muammolarni ko'taradi. Hamza bu asarida yoshlarni oilaviy hayotda adolatli va mas'uliyatli bo'lishga chaqiradi.

"Zaharli hayot y oxud ishq o'yini" dramasi orqali oilaviy munosabatlardagi xiyonat va axloqsizlikka qarshi kurashadi, yoshlarga sadoqat va mas'uliyatni o'rgatadi.

"Yangi saodat" asarida yoshlarni ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatga, shu jumladan oilaviy hayotga tayyorlashga undaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziy oilani jamiyatning asosiy instituti deb bilgan va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda axloqiy tarbiyaga katta e'tibor bergan.

Ayniqsa ayollarning ta'lim olishi va oiladagi teng huquqliligini targ'ib qilgan. Bu g'oyalar ayniqsa uning dramalarida yaqqol ko'rinadi, unda ayollarning o'z huquqlari uchun kurashishi ta'svirlanadi [8.49B].

Muhokama. Jadidlar ta'lim orqali yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga katta e'tibor bergan. Behbudiy va Avloniyning "Yangi usul" maktablar tashkil etish tashabbusi yoshlarni

nafaqat ilmiy bilimlar, balki oilaviy hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan edi.

Jadidlar tomonidan ochilgan yangi usuldagi maktablar yoshlarni nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy fanlar (matematika, tabiatshunoslik, adabiyot) bilan ham tanishtirgan. Bu yoshlarni mustaqil hayotga, shu jumladan oilaviy hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynagan.

Jadid namoyandalarining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Ularning axloqiy tarbiya, gender tenglik va ma'rifatparvarlikka urg'u berishi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Masalan, Behbudiyning axloqiy tarbiyaga qaratilgan g'oyalari zamonaviy psixologiyada "hissiy barqarorlik" va "empatiya" tushunchalari bilan mos keladi. Shu bilan birga, Fitratning gender tenglik haqidagi qarashlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"dagi tamoyillarga mos keladi.

Jadidlarning ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari oliy ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilishi mumkin. Masalan, interfaol ta'lim metodlari, ro'lli o'yinlar va muhokamalar orqali talabalarga oilaviy munosabatlardagi mas'uliyat va tenglik tushunchalarini o'rgatish mumkin. Shu bilan birga, jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari zamonaviy media savodxonlik dasturlari bilan integratsiyalashib, talabalarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatishi mumkin.

Tavsiyalar

1. Oliy ta'lim muassasalarida "Oilaviy hayotga tayyorgarlik" kurslarida jadidlarning ta'lim g'oyalari asoslangan modullar joriy etilsin.

2. Talabalarga axloqiy tarbiya va gender tenglik bo'yicha seminarlar tashkil etilib, jadidlarning asarlaridan iqtiboslar keltirilsin.

3. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalarida maxsus dasturlar ishlab chiqilsin.

4. Yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatga tayyorlashda jadidlarning oilaviy qadriyatlar haqidagi qarashlaridan foydalanilsin.

Xulosa.

Jadid namoyandalarining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning axloqiy tarbiya, gender tenglik, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatga qaratilgan qarashlari zamonaviy pedagogikada qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategik yondashuvlarni taklif etadi. Oliy ta'lim muassasalarida jadidlar g'oyalari asoslangan maxsus dasturlar joriy etilishi talaba yoshlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev K. Jadidchilik harakati va Turkistonda ma'rifiy islohotlar. Toshkent: Akademiya nashri. 2019-y.

2. Allworth, E. "The modern Uzbeks: From the nineteenth century to the present." Stanford, CA: Hoover Institution Press.

3. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar (M. Rahimov, Ed.). Toshkent: Yangi Asr Avlodi. 2015y.

4. Fitrat, A. "Tanlangan asarlar": "Adabiyot va ma'rifat haqida" Toshkent: Ma'naviyat.

5. Khalid, A. "The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia". Berkeley, CA: University of California Press.

6. Munavvarqori, A. "Ma'rifat va tarbiya to'g'risida." Toshkent: Sharq Nashriyot.

7. Shakuriy A. Oilaviy hayot va ma'naviy-axloqiy tarbiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: G'afur G'ulom Nomidagi Nashriyot.

9. Qosimov B. Jadidchilik harakatining pedagogik asoslari. O'zbekiston Tarixi, 25(3), 45–52.